



KAFIL
SUG'URTA

Sug'urta kompaniyasi
Страховая компания

**XAVFLI ISHLAB CHIQARISH OBYEKTIDA AVARIYA SODIR BO'LGAN
TAQDIRDA BOSHQA SHAXSLARNING HAYOTI, SOG'LIG'I VA (YOKI)
MOL-MULKIGA HAMDA ATROF MUHITGA ZARAR YETKAZGANLIGI
UCHUN FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY SUG'URTA
QILISH UCHUN OMMAVIY OFERTA**

“OPO”

Kod:60



KAFIL
SUG'URTA

TASDIQLAYMAN
«KAFIL SUG'URTA» AJ

Boshqaruv raisi

F.A. Artikov

2022 yil «__» _____dagi

_____sonli buyruqqa 2-ilova

XAVFLI ISHLAB CHIQARISH OBYEKTIDA AVARIYA SODIR BO'LGAN TAQDIRDA BOSHQA SHAXSLARNING HAYOTI, SOG'LIG'I VA (YOKI) MOL-MULKIGA HAMDA ATROF MUHITGA ZARAR YETKAZGANLIGI UCHUN FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI MAJBURIY SUG'URTA QILISH UCHUN OMMAVIY OFERTA

Ushbu Ommaviy oferta (bundan buyon matnda Oferta deb yuritiladi) «KAFIL-SUG'URTA» AJ ning (bundan buyon matnda Sug'urtalovchi deb yuritiladi) noma'lum doiradagi yuridik shaxslarga (bundan buyon Sug'urta qildiruvchi deb yuritiladi) yo'llangan quyidagi sug'urta shartlarida ofertani Sug'urtalovchining axborot tizimlari vositasida tuzish taklifi bo'lib hisoblanadi. Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi shartnoma taraflaridir.

Mazkur Oferta shartlarining qabul qilinishi va shartlashilgan sug'urta mukofotining to'lanishi uning shartlarini akseptlash hamda Sug'urta qildiruvchining Ofertani tuzishga roziligi bo'lib hisoblanadi.

Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'langanligi fakti tasdiqlanganidan keyin unga sug'urta polisi beriladi va Oferta tuzilgan deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq Oferta shartlarining qabul qilinishi mazkur Oferta shartlarini so'zsiz qabul qilingan deb hisoblanadi va u bilan quyidagilarga rozilik ifodalanadi:

-mazkur Oferta shartlari, jumladan unda bayon qilingan sug'urta shartlariga rozilik;

-arizani to'ldirishda ko'rsatilgan shaxsga doir ma'lumotlar bilan sug'urta faoliyatini amalga oshirish maqsadida avtomatlashtirilgan yoki avtomatlashtirilmagan tarzda ishlov berish yuli orqali 5 yil muddatga ishlashga, jumladan ularni yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish, ulardan foydalanish, ularni egasini ko'rsatmaslik, bloklash, yo'q qilishga (yo'q qilish haqida xabar qilmagan holda), shuningdek ofertani bajarish, ichki hujjat aylanmasini ta'minlash maqsadida uchinchi shaxslarga ularni berishga rozilik.

Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining internet resursi vositasida Ofertani tuzish natijasida o'z huquqi va muomalaga layoqatligini tasdiqlaydi, shuningdek o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar yuzasidan javobgarlikni anglaydi.

Sug'urtalovchining internet resursida onlayn tarzda Sug'urta shartnomasini tuzish uchun Sug'urta qildiruvchidan uning elektron pochta manzili va telefon raqami, davlat ro'xatidan o'tganligini tasdiqlovchi guvohnomasi, xavfli ishlab chiqarish obyektiining identifikatsiyasidan iborat bo'lgan sanoat xavfsizligi xulosasi mavjudligi talab qilinadi.

Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urtalovchining internet resursida Sug'urta shartnomasini tuzish uchun zarur va muhim bo'lgan barcha ma'lumotlarni kiritilishi Sug'urta uchun ariza bo'lib hisoblanadi.

Sug'urtalovchi «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 26-moddasi talablariga muvofiq Sug'urta qildiruvchiga doir ma'lumotlari saqlanishini va oshkor qilinmasligini ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

«Oferta», «Oferta» va «Sug'urta polisi» havolalari bundan buyon matnda mazkur elektron hujjatga nisbatan bir xil ahamiyatga ega bo'ladi.

1. Umumiy shartlar

1.1. Ushbu Ofertaning predmeti bo'lib xavfli ishlab chiqarish (keyingi o'rinlarda – «XIch») obyektiida avariya yuz bergan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof-muhitga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish hisoblanib, shu munosabat bilan Sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofotini ushbu Ofertada ko'rsatilgan miqdor va muddatda to'lash majburiyatini, Sug'urtalovchi esa ushbu Ofertada keltirilgan shartlar va/yoki ushbu Ofertaning ajralmas qismi bo'lgan qo'shimcha kelishilgan shartlar, istisnolar va ilovalarga muvofiq ushbu shartnoma foydasiga tuzilgan boshqa shaxsga (Naf oluvchiga) sug'urta hodisasi sodir bo'lganda yetkazilgan zararni quyida ko'rsatilgan tartibda ushbu Oferta bilan kelishilgan sug'urta puli chegarasida to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Sug'urta obyekti bo'lib Sug'urta qildiruvchining xavfli ishlab chiqarish obyektiida avariya yuz bergan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof-muhitga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligi yuzaga kelishi bilan bog'liq mulkiy manfaatlar hisoblanadi.

1.3. Ushbu Ofertaga muvofiq Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga Ariza-so'rovnomada va boshqa ilovalarda taqdim etilgan hujjatlar va ma'lumotlar ushbu Ofertaning ajralmas qismi ekanligini, shuningdek to'g'ri va haqiqatga to'g'ri keluvchi ma'lumotlarga ega ekanligini tasdiqlaydi.

2. Ishlatiladigan asosiy atamalar va ularning ta'rifi:

2.1. **Sug'urta voqeasi** – Sug'urta davrida sug'urta hodisasi deb tan olinishi mumkin bo'lgan, XICH obyektida avariya yuz bergan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof-muhitga zarar yetkazganlik uchun Sug'urta qildiruvchining fuqarolik javobgarligini yuzaga kelishi.

2.2. **Sug'urta hodisasi** – xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya sodir bo'lganda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof-muhitga zarar yetkazilganligi uchun sug'urtalanuvchining fuqarolik javobgarligining boshlanishi fakti.

2.3. **Avariya** – inshootlar va (yoki) XICH obyektlarida qo'llanadigan texnika qurilmalarining buzilishi, oferta amal qiladigan davrda (sug'urta muddatida) ro'y bergan nazorat qilib bo'lmaydigan portlash va (yoki) xavfli moddalar ajralib chiqishi. Avariyaning texnik tavsifi, tavsilotlari, sabab va oqibatlari XIF dan foydalanish bo'yicha texnik masalalarni tartibga soluvchi amaldagi me'yoriy hujjatlar, avariya sabablarini texnik jihatdan tekshirish dalolatnomasi, mutasaddi idoralarning, boshqa ixtisoslashgan tashkilotlarning xulosalariga muvofiq aniqlanadi.

2.4. **Sug'urta puli** – Sug'urtalovchining Sug'urta ofertasi bo'yicha Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi oldidagi majburiyatlarining chegarasini o'zida aks ettiruvchi pul mablag'lari miqdori.

2.5. **Sug'urta mukofoti (sug'urta badali/to'lovi)** – Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga ushbu Sug'urta ofertasi bilan belgilangan tartib va muddatda to'lashi shart bo'lgan sug'urta uchun to'lov.

2.6. **Sug'urta tovon** – sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urta qildiruvchi/Boshqa shaxslar ko'rgan zararni qoplash uchun sug'urta puli chegarasida Sug'urtalovchi tomonidan to'lnadigan pul mablag'lari miqdori.

2.7. **Sug'urta polisi** – ushbu oferta bo'yicha Sug'urtalovchining majburiyatlari kuchga kirganligini tasdiqlovchi, sug'urta mukofoti to'langandan keyin Sug'urta qildiruvchiga beriladigan hujjat. Sug'urta polisi sug'urta muddati mobaynida amalda bo'ladi.

2.8. **Oferta amalda bo'ladigan muddat** – ushbu oferta amalda bo'ladigan davr.

2.9. **Sug'urta muddati** – sug'urta polisida ko'rsatilgan muddat. Ushbu oferta bilan shartlashilgan sug'urta sug'urta ofertasi kuchga kirgandan keyin sodir bo'lgan sug'urta hodisalariga nisbatan kuchga ega bo'lib, sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta muddati mobaynida amalda bo'ladi.

2.10. **Sug'urta qildiruvchi** – XICH obyektidan foydalanuvchi tashkilot (yuridik shaxs).

2.11. **Boshqa shaxs (Naf oluvchi)** – XICH obyektida avariya bo'lganda hayot, sog'liq va (yoki) mol-mulkka zarar yetkazilganligi uchun Sug'urta qildiruvchiga da'vo bilan chiqishga haqli jismoniy shaxs/yuridik shaxs/davlat.

2.12. **Sug'urta hududi** – XICH obyektida joylashgan, Sug'urtalovchi sug'urta himoyasini taqdim etadigan joy.

2.13. **Sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnoma** – sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urta qildiruvchi yoki uning vakili (zarur holatda Naf oluvchi) ishtirokida Sug'urtalovchi tomonidan tuziladigan va avariya vaqti, joyi va sababi, boshqa shaxslarga yetkazilgan zarar miqdori, shuningdek zararni kamaytirish maqsadida Sug'urta qildiruvchining sarf-xarajatlari miqdori to'g'risidagi axborotni o'z ichiga oluvchi hujjat.

2.14. **Xavfli ishlab chiqarish obyektining identifikatsiya varag'i** – XICH obyekt va undan foydalanuvchi tashkilotning alomatlar, tipi va rekvizitlarining yig'indisini o'zida aks ettiruvchi hujjat.

2.15. **Xavfli ishlab chiqarish obyektining tipi** – XICH obyektida mavjud xavfli moddalar va ularning kategoriyasi asosida XICH obyektining xavflilik darajasini belgilovchi XICH obyektining tavsifi.

3-BO'LIM. SUG'URTA HODISASI

3.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 10 dekabrda 271-sonli Qarori, shuningdek ushbu ofertada ko'rsatilgan muddatlar, shartlar va istisnolarga muvofiq Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchining xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya yuz bergan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof-muhitga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligi yuzaga kelishi bilan bog'liq mulkiy manfaatlariga sug'urta himoyasini taqdim etadi.

3.2. Ushbu ofertaga muvofiq XICH obyektida avariya yuz bergan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof-muhitga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligi yuzaga kelishi sug'urta hodisasi deb tan olinadi.

3.3. Ushbu ofertaga muvofiq faqat Sug'urta qildiruvchining javobgarlik xavfi va faqat boshqa shaxslar (Naf oluvchilar) foydasiga sug'urtalangan.

3.4. Ushbu oferta bo'yicha Sug'urta puli, Sug'urta mukofoti, sug'urtalovchi tomonidan ishlab chiqilgan tarif stavkalaridan va ofertada belgilangan sug'urta summasi miqdoridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi. 3.6. Sug'urta mukofoti/navbatidagi badal to'langan kun bo'lib pul mablag'lari Sug'urtalovchining bank hisob raqamiga kelib tushgan kun hisoblanadi.

3.7. Agar sug'urta mukofoti yoki uning birinchi/navbatdagi badali ushbu oferta bilan belgilangan muddatda to'lanmasa, Sug'urtalovchi ofertani birtomonlama bekor qilishga haqli va shundan kelib chiqqan holda to'lov muddati tugagan paytdan boshlab oferta amal qilishi tugatiladi va o'z yuridik kuchini yo'qotadi (avtomatik tarzda bekor qilinadi) hamda Sug'urtalovchi uchun sug'urta tovon to'lovi bo'yicha hech qanday majburiyatlarni keltirib chiqarmaydi.

3.8. Ushbu oferta bo'yicha barcha o'zaro hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'mda amalga oshiriladi.

4-BO'LIM. UMUMIY ISTISNOLAR

4.1. Ushbu ofertaga muvofiq Sug'urta qildiruvchining quyidagi holatlar natijasida fuqarolik javobgarligi sug'urta hodisasi deb tan olinmaydi:

a) Sug'urta qildiruvchining va/yoki boshqa shaxsning (Naf oluvchining) Sug'urta qildiruvchining javobgarligini yuzaga kelishiga olib kelgan qasddan qilgan harakatlari;

Izoh. Bunda Sug'urta qildiruvchi vakilining aybi bilan amalga oshirilgan harakat bo'lib ushbu vakil amaldagi me'yoriy va boshqa hujjatlarga, XIch obyektidan foydalanish amaliyotiga ko'ra o'z harakatlarining (harakatsizligining) salbiy oqibatlari haqida bilgan yoki bilishi shart bo'lgan holda qilingan harakatlar hisoblanadi. Vakil mavjudligi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi talablariga muvofiq aniqlanadi.

b) yadroviy portlash, radiatsiya, radioaktiv zaharlanish, agar bu ushbu ishlab chiqarish obyektidan foydalanish bilan bog'liq bo'lmasa;

v) harbiy harakatlar, shuningdek manyovrlar yohud qurollangan tuzilmalar yoki terrorchilarning boshqa harbiy tadbirlari, harakatlari;

g) ommaviy tartibsizliklar, boshqa ommaviy fuqarolik bo'ysunmaslik harakatlari, ish tashlashlar;

d) yengib bo'lmas kuch holatlarining ta'siri: tabiiy ofatlar, stixiyali tavsifdagi tabiiy hodisalar;

e) XIch obyektidan foydalanish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan holatlarning va/yoki Sug'urta qildiruvchining javobgarligining yuzaga kelishi;

j) qonun hujjatlari va ushbu Oferta bilan nazarda tutilgan boshqa holatlar.

4.2. Ushbu Ofertaga muvofiq quyidagilar bo'yicha har qanday arznomalar/da'volar sug'urta hodisasi bo'lib hisoblanmaydi:

a) boshqa/uchinchi shaxslarga yetkazilgan ma'naviy zarar;

b) Sug'urta qildiruvchi O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga binoan shartnoma (bitim) bo'yicha xizmat vazifalarini bajarayotganda u bilan xizmat munosabatlarida bo'lgan shaxslarga yetkazilgan zarar;

v) Sug'urta qildiruvchi mulkdorlik, operativ boshqaruv huquqi yoki boshqa qonuniy asosda (ijara huquqi, saqlash shartnomasi, ishonchnoma, tegishli idoraning topshirig'i bilan unga mol-mulk berilishi va h.) egalik qilgan mol-mulkka yetkazilgan zarar;

g) Sug'urta qildiruvchining neustoyka (jarima, penya) to'lash, kafolat majburiyatlarini va shunga o'xshash majburiyatlarni bajarish, shartnomaviy majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik bilan bog'liq zararlari;

d) yo'qotilgan foyda.

4.1. Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida ko'rsatilgan holatlarda ham sug'urta to'voni to'lovidan ozod bo'ladi.

5-BO'LIM. OFERTANI KUCHGA KIRISHI VA AMAL QILISH MUDDATI

5.1. Ushbu oferta Sug'urta qildiruvchining Sug'urtalovchi belgilagan elektron arizasiga muvofiq tuzilgan.

5.2. Ushbu oferta kelishilgan sug'urta mukofoti yoki uning birinchi badali o'z vaqtida to'lanishi sharti bilan tomonlar uni tasdiqlagan paytdan boshlab kuchga kiradi va 1 yil muddat mobaynida amalda bo'ladi.

5.3. Sug'urta mukofoti yoki uning birinchi badali o'z vaqtdan keyin to'langan taqdirda oferta kelishilgan sug'urta mukofoti to'langan paytdan boshlab kuchga kiradi va 1 yil muddat mobaynida amalda bo'ladi. Sug'urta mukofoti yoki uning birinchi qismi bo'lib pul mablag'lari Sug'urtalovchining bank hisob raqamiga kelib tushgan kun hisoblandi.

5.4. Ushbu Oferta bilan shartlashilgan sug'urta oferta kuchga kirgandan keyin sodir bo'lgan sug'urta hodisalariga nisbatan qo'llaniladi va sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta muddati mobaynida amalda bo'ladi.

5.5. Sug'urtalovchi Sug'urta polisida ko'rsatilgan Sug'urta muddati mobaynida sodir bo'lgan avariya oqibatida sodir bo'lgan sug'urta hodisalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari muvofiq majburiyatlarga ega bo'ladi.

5.6. Sug'urta polisi Sug'urtalovchining bank hisob raqamiga sug'urta mukofoti/birinchi/ navbatdagi badal kelib tushgandan keyin 3 (uch) ish kuni ichida beriladi. Sug'urta mukofoti to'liq to'lanmagan taqdirda Sug'urta polisi sug'urta mukofotining to'langan qismiga mutanosib muddat uchun beriladi.

6-BO'LIM. OFERTANI BEKOR QILINISHI VA TUGATILISHI

6.1. Mazkur ofertani muddatidan avval tomonlardan birining yozma arizasiga binoan bekor qilinishi mumkin. Ushbu ofertani muddatidan avval bekor qilish uchun barcha taraflarning yozma roziligi bo'lishi shart. Ofertani uni bekor qilish haqidagi kelishuv bitimi imzolangan kundan keyingi kunda bekor bo'lgan hisoblanadi.

6.2. Mazkur oferta Sug'urtalovchi aybi sababli bekor qilinishi talab qilingan taqdirda, to'langan sug'urta mukofoti Sug'urta qildiruvchiga to'liq qaytariladi.

6.3. Ushbu Ofertaning 6.2. bandida ko'rsatilgan vajdan boshqa sabab bilan oferta Sug'urta qildiruvchi / Naf oluvchi talabiga ko'ra bekor qilinganda, sug'urta mukofoti, undan Sug'urtalovchining 55% miqdoridagi sarf-xarajatlari chegirilib, qolgan summani sug'urta muddatining o'tmagan davriga mutanosib ravishda qayta hisoblab qaytariladi.

Agarda mazkur oferta amalda bo'lish davrida muqaddam sug'urta to'voni to'langan bo'lsa yoki bunday to'lov amalga oshirilishi lozim bo'lsa, bunday vaziyatda to'langan sug'urta mukofoti qaytarilmaydi.

6.4. Mazkur oferta Sug'urta qildiruvchi aybi sababli bekor qilinishi talab qilingan taqdirda, to'langan sug'urta mukofoti Sug'urta qildiruvchiga qaytarilmaydi.

6.5. Ushbu oferta quyidagi holatlarda tugatiladi:

a) Amal qilishi muddati tugaganda;

b) Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi/Haydovchi oldidagi o'z majburiyatlarni to'liq hajmda bajarganda;

g) O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida keltirilgan boshqa holatlarda.

7-BO' LIM. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

7.1. Sug'urtalovchining huquqlari:

7.1.1. ushbu oferta amal qilishi davrida o'z hisobidan sug'urta qaltisligi darajasining o'zgarishini aniqlash maqsadida sug'urta obyektni mustaqil tekshiruvini o'tkazishi;

7.1.2. Ofertani tuzayotganda va oferta amalda bo'lgan davrda sug'urta qaltisligini baholashi;

7.1.3. yetkazilgan zararining miqdorini aniqlash maqsadida tergov o'tkazishi;

7.1.4. avariya texnik tekshiruv materiallari, zarar yetkazilganligi yuzasidan mutasaddi idoralardan berilgan axborot va hujjatlar, tibbiy xulosalar, yo'kolgan (shikastlangan) mol-mulkning qiymati haqida xulosa qilishga imkon beruvchi hisoblar, amalga oshirilgan ishlar qiymati, shuningdek boshqa zarur hujjatlarni so'rashi va olishi;

7.1.5. Sug'urta qildiruvchi taqdim etgan axborotni tekshirishi, Sug'urta qildiruvchi ushbu Oferta talablari va shartlarini bajarishini nazoratini yuritishi;

7.1.6. Sug'urta qildiruvchidan sanoat xavfsizligi talablariga rioya etilishini talab qilishi;

7.1.7. zararni kamaytirish uchun o'zi zarur deb bilgan choralarni ko'rishi, Sug'urta qildiruvchining yozma topshirig'iga binoan uning huquqlarini himoya qilishi va zararni tartibga solish ishlarini yuritishi;

7.1.8. sug'urta to'voni to'lovini rad etishi, agar:

a) Sug'urta qildiruvchiga sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi haqida ma'lum bo'lgandan keyin ushbu Ofertada ko'rsatilgan muddat va uslubda u sodir bo'lganligi haqida xabar bermasa, agar Sug'urtalovchi bu haqda o'z vaqtida bilganligi yoki Sug'urtalovchida bu ma'lumotlar mavjud bo'lmaganligi uning sug'urta to'voni to'lash majburiyatiga ta'sir etmasligi isbotlanmasa;

b) ushbu Oferta amal qilgan muddatda Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga ushbu Oferta tuzilayotganda xabar qilgan tavsilotlar o'zgarganligi haqida, agar bu o'zgarishlar sug'urta qaltisligini oshishiga ahamiyatli darajada ta'sir etgan bo'lsa, xabar qilmasa;

v) Sug'urta qildiruvchi XIch obyektida avariya bo'lishini oldini olish, avariya sodir bo'lganda boshqa shaxslarga yetkazilayotgan zararni kamaytirish bo'yicha zarur va imkoni mavjud choralarni ko'rmasa;

g) Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi) Sug'urtalovchi qoplagan zararlar uchun javobgar shaxsdan talab qilish huquqidan voz kechsa yoki Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi) aybi bilan ushbu huquqni amalga oshirishning imkoni bo'lmay qolsa. Bunda Sug'urtalovchi ortiqcha to'langan tovon miqdorini qaytarilishini talab qilishga haqli.

d) Sug'urta qildiruvchi yetkazilgan zararining tavsiloti, tavsifi va miqdorini aniqlashda Sug'urtalovchi ishtirok etishiga qarshilik qilsa;

e) Sug'urta qildiruvchi sug'urta hodisasi sodir bo'lishi fakti va zarar miqdorini aniqlash uchun zarur bo'lgan hujjatlar/ma'lumotlar/axborotlarni taqdim etmasa;

j) Sug'urta qildiruvchining javobgarligi Sug'urta qildiruvchining va/yoki uning vakilining/xodimining/xizmatchisining va/yoki Sug'urta qildiruvchining boshqa aloqador shaxsining (pudratchisi, mol yetkazib beruvchisi va sh.k.) qo'pol ehtiyotkorsizligi natijasida yuzaga kelsa.

z) Sug'urtalovchi shuningdek Sug'urta qildiruvchi va/yoki uning vakillari ushbu Oferta bo'yicha o'z zimmlariga qabul qilgan majburiyatlarni bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda sug'urta tovonini to'lashni rad etish huquqiga ega.

7.1.9. Agar Oferta tuzilgandan keyin Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga sug'urta hodisasi sodir bo'lishi ehtimoli va u sodir bo'lishidan yetishi mumkin bo'lgan zararlarni aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega, unga ma'lum tavsilotlar haqida avvaldan yolg'on ekanligi ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etganligi aniqlansa, ushbu Ofertani haqiqiy emas deb tan olishini talab qilishi. Muhim bo'lib Sug'urtalovchi bilan Ariza-so'rovnomada kelishilgan tafsilotlar hisoblanadi.

7.1.10. sug'urta mukofoti (yoki uning qismi) Ofertada kelishilgan muddatda to'lanmasa, ofertani birtomonlama bekor qilib, natijada to'lov muddati tugagandan (navbatdagi to'lov to'lanishi shart bo'lgan) paytdan boshlab oferta amal qilishi tugatiladi va u o'z yuridik kuchini yo'qotadi (avtotik tarzda bekor qilinadi) va Sug'urtalovchi uchun sug'urta to'voni to'lash bo'yicha hech qanday majburiyat keltirib chiqarmaydi.

7.2. Sug'urtalovchining majburiyatlari:

7.2.1. ushbu Oferta bilan belgilangan muddatda Sug'urta polisini berishi;

7.2.2. Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta hodisasi sodir bo'lishi qaltisligini kamaytirish bo'yicha choralar amalga oshirilgan taqdirda Sug'urta qildiruvchining arizasiga ko'ra sug'urta hodisasi sodir bo'lishi qaltisligi kamayganligini hisobga olgan holda ushbu Ofertaning shartlarini qayta ko'rib chiqishi;

7.2.3. sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urta to'lovini ushbu Oferta bilan belgilangan muddatda amalga oshirishi yoki sug'urta to'voni to'lovini rad etishning yozma dalilli sabablari asoslangan holda rad etishi;

7.2.4. Sug'urtalovchi qoplashi lozim bo'lgan zararlarni kamaytirish maqsadida amalga oshirilgan xarajatlarni, agar ushbu xarajatlar zarur yoki Sug'urtalovchining ko'rsatmalarini bajarish uchun amalga oshirilgan bo'lsa, qoplashi. Mazkur xarajatlarni qoplanishi sug'urtalovchi tomonidan tegishli xarajatlar haqidagi dalolatnoma olingandan keyin bir oy davomida, lekin sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lovi amalga oshirilmasdan avval amalga oshiriladi. Bunday xarajatlar hatto tegishli choralar muvaffaqiyatsiz bo'lsa va zararlarni qoplash bilan birgalikda ushbu Oferta bilan belgilangan sug'urta pulidan ortiq bo'lsa ham, lekin 20% gacha ortiq bo'lgan chegarada qoplanadi;

7.2.5. Ushbu Ofertani tuzish bilan bog'liq ravishda Sug'urta qildiruvchining mulkiy ahvoli, XIch obyektidan foydalanishning shart-sharoiti va boshqa sirli axborotni, qonun hujjatlarida ko'rsatilgan holatlardan tashqari boshqa hollarda oshkor qilmasligi.

7.3. Sug'urta qildiruvchining huquqlari:

7.3.1. Sug'urtalovchi bilan kelishilgan holda ushbu Ofertaga o'zgarishlar va qo'shimchalar kiritishi;
7.3.2. Sug'urta polisi yo'qolgan taqdirda uning dublikatini olishi;
7.3.3. sug'urta hodisasini tekshirishda ishtirok etishi;
7.3.4. sug'urta hodisasini tekshirish natijalariga ko'ra chiqarilgan qarorlar ustidan arz qilishi;
7.3.5. Sug'urtalovchidan XIch obyektida avariya yuz bergan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof-muhitga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha o'z huquqlari va majburiyatlari to'g'risida bepul axborot olishi;

7.3.6. XIch obyektida avariya yuz bergan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof-muhitga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish masalalari yuzasidan o'z huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilishi.

7.4. Sug'urta qildiruvchining majburiyatlari:

7.4.1. ushbu Oferta bilan belgilangan tartib, hajm va muddatda sug'urta mukofotini to'lashi;

7.4.2. ushbu Ofertani tuzishda unga ma'lum bo'lgan, sug'urta qaltisligini baholash uchun muhim ahamiyatga ega tavsilotlar haqida, shuningdek mazkur XIch obyektiga nisbatan barcha tuzilgan va tuziladigan sug'urta shartnomalari haqida Sug'urtalovchiga xabar berishi;

7.4.3. ushbu Oferta amalda bo'lgan muddatda ushbu Ofertani tuzayotganda xabar qilingan tavsilotlarda o'ziga ma'lum bo'lgan o'zgarishlar haqida, agar ushbu o'zgarishlar sug'urta qaltisligi oshishiga ahamiyatli darajada ta'sir etishi mumkin bo'lsa, Sug'urtalovchiga darhol xabar qilishi (Tavsilotlar o'zgarishi ma'lum bo'lgan taqdirda ushbu Shartnoma tuzilmasligi yoki sezilarli ravishda farq qiluvchi shartlarda tuzilishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar muhim bo'lib tan olinadi);

7.4.4. XIch obyektida avariya paytidan boshlab 3 (uch) ish kuni ichida XIch obyektida sodir bo'lgan har qanday avariya haqida, shuningdek XIch obyektida avariya yuz bergan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof-muhitga zarar yetkazganlik uchun zararni qoplab berish to'g'risida Sug'urta qildiruvchiga taqdim etilgan da'volarga olib kelishi mumkin bo'lgan avariyaning oqibatlariga haqida, boshqa shaxslarning zararni qoplab berish haqidagi da'vo va arzlari haqida xabar berishi, avariya tavsilotlari va sabablarini tavsiflovchi barcha hujjatlarni taqdim etishi;

7.4.5. 3 (uch) ish kuni ichida XIch obyektida sodir bo'lgan avariya munosabati bilan zararni qoplash to'g'risidagi unga berilgan talablar (da'vo, arzlari) haqida Sug'urtalovchiga xabar qilishi;

7.4.6. Tegishli sud qarorini olgandan keyin 3 (uch) ish kuni ichida Sug'urtalovchiga XIch obyektidagi avariya yetkazilgan zararni qoplash majburiyati yuzaga kelganligini belgilovchi sud qarori haqida xabar qilishi;

7.4.7. XIch obyektida avariylarni oldini olish, XIch obyektidan foydalanishda avariya natijasida yetkaziladigan zararni kamaytirish bo'yicha zarur va imkon bor choralarni ko'rishi;

7.4.8. Avariya sodir bo'lganda yetishi mumkin bo'lgan zararni kamaytirish uchun yuzaga kelgan vaziyatda oqilona va imkon bor choralarni ko'rishi. Bunday choralarni amalga oshirayotganda Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining ko'rsatmalariga, agar ular Sug'urta qildiruvchiga xabar qilingan bo'lsa, rioya etishi shart;

7.4.9. Boshqa shaxslarga qo'yilgan talablarni hal etish bo'yicha har qanday majburiyatlarni Sug'urtalovchining yozma rozilgisiz o'z zimmasiga qabul qilmasligi.

7.5. Sug'urta qildiruvchining XIch obyektining o'ziga xos tomonlaridan kelib chiqqan majburiyatlari:

a) O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarining talablariga, sanoat xavfsizligi sohasida me'yoriy huquqiy hujjatlarga amal qilishi;

b) Agar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq litsenziyalash majburiyati belgilangan bo'lsa, XIch obyektidan foydalanish uchun litsenziyaga ega bo'lishi, litsenziya olinishi va uning amal qilishi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tugatilganligi haqida xabar qilishi;

в) XIch obyektida ishlash uchun tegishli malakaga va boshqa talablarga javob beruvchi hamda mazkur ishni bajarishi tibbiy ta'qiqlanmagan shaxslarni qo'yishi;

г) Sanoat xavfsizligi talablarini bajarilishini va ishlab chiqarishni tashkil qilishi va nazorat qilishi;

д) Belgilangan talablarga muvofiq zarur ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish asbob-uskunlari va tizimlari bo'lishi va ishlashini ta'minlashi;

е) Mutasaddi idoraning tartibidagi ko'rsatmasiga ko'ra va muddatlarda sanoat xavfsizligi tekshiruvini ta'minlashi, XIch obyektida foydalanilayotgan qurilmalar va texnik uskunalarning tashhisi, sinovi, tasdig'ini amalga oshirishi;

ж) XIch obyektiga begona shaxslar kirishining oldini olishi;

з) xavfli moddalardan foydalanishga qo'yilgan sanoat xavfsizligi talablari bajarilishini ta'minlashi;

и) XIch obyektida avariya sodir bo'lsa, shuningdek sanoat xavfsizligiga ta'sir etuvchi yangi tavsilotlar aniqlangan taqdirda zararni oldini olish va (yoki) kamaytirish doirasida XIch obyektidan foydalanishni mustaqil ravishda yoki sud qaroriga binoan to'xtatishi;

к) XIch obyektida avariyaning oqibatlarini tarqalishini oldini olishi va bartaraf etishi, Sug'urtalovchini tegishli ravishda va mantiqan qisqa muddatlarda xabardor qilgan holda avariya sabablarini tekshirishda davlat idoralariga ko'maklashishi;

л) Avariya sodir bo'lishi sabablarini bartaraf etish va profilaktika choralari ko'rishi.

7.6. Boshqa shaxslarning huquqlari:

7.6.1. Ushbu ofertaning shartlariga muvofiq xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya yuz bergan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof-muhitga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish sug'urta tovonini olishi;

7.6.2. Sug'urta hodisasini tergov qilishda katnashishi;

7.6.3. Sug'urta hodisalarini tergov natijalari bo'yicha Sug'urtalovchining qarori ustidan arz qilishi;

7.6.4. Sug'urtalovchidan XIch obyektida avariya yuz bergan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki)

mol-mulkiga hamda atrof-muhitga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi bo'yicha huquq va majburiyatlari haqida ma'lumot olishi;

7.6.5. Xavfli ishlab chiqarish obyektida avariya yuz bergan taqdirda boshqa shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga hamda atrof-muhitga zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi masalalari bo'yicha o'z huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat etishi.

7.7. Boshqa shaxslarning majburiyatlari:

7.7.1. axsus idoralar tomonidan berilgan, XIch obyektda avariya natijasida zarar ko'rilganligini va uning miqdorini tasdiqlovchi zarur hujjatlarni taqdim etishi;

7.7.2. sodir bo'lgan sug'urta hodisasini mustaqil tekshiruvini o'tkazishga Sug'urtalovchiga ko'maklashishi;

7.7.3. Sug'urta qildiruvchi va Sug'urtalovchi hamda boshqa shaxslar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

7.7.4. Sug'urta qildiruvchi va/yoki Sug'urtalovchi ushbu Oferta bilan nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaganda ular ushbu Oferta va O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlarining talablariga muvofiq javobgardirlar.

8-BO'LIM. DA'VOLARNI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

8.1. XIch obyektda boshqa shaxslarning hayoti va sog'lig'i va/yoki mol-mulkiga va/yoki atrof-muhitga zarar yetishiga olib kelgan avariya sodir bo'lgan taqdirda Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining ko'rsatmalariga, agar ular Sug'urta qildiruvchiga xabar qilingan bo'lsa, amal qilishi shart.

8.2. Ushbu shartnoma doirasida Sug'urtalovchiga sug'urta to'lovi bo'yicha talab qo'yilishiga asos bo'lishi mumkin bo'lgan voqea sodir bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi:

- sodir bo'lgan voqea haqida mutasaddi idoralarga darhol habar berishi (yong'in xavfsizligi idoralari, ichki ishlar idoralari va b.);

- imkoni bo'lishi bilanoq darhol, lekin 72 soatdan kechiktirmay Sug'urtalovchini bu haqda xabardor qilishi va voqea sodir bo'lgandan keyin 5 (besh) ish kuni ichida sug'urtalovchiga voqea sabalari va tavsilotlari ko'rsatilgan xabarnomani yo'llashi shart;

8.3. Sug'urta to'lovi to'lovi haqidagi arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilingan bo'lishi shart:

- Sug'urta polisi (asli);
- mutasaddi idoralarning tasdig'i bilan zararga tegishli barcha hujjatlar;
- ushbu Oferta shartlariga muvofiq voqea sodir bo'lganligi, tavsilotlari va holatini tasdiqlovchi, ushbu sug'urta voqeariga taalluqli boshqa hujjatlar;

8.4. Sug'urta to'lovi to'lovi haqidagi arizada Sug'urta qildiruvchi quyidagilarni ko'rsatishi shart:

- XIch obyektda avariyaning sanasi va tavsifi;
- avariya sodir bo'lganda Sug'urta qildiruvchining harakatlari;
- tahmin qilinayotgan zarar va Sug'urta qildiruvchi da'vo qilayotgan sug'urta to'lovi miqdori;

8.5. Sug'urta to'lovi to'lovi haqidagi yozma ariza Sug'urta qildiruvchining Sug'urtalovchiga XIch obyektda avariya natijasida boshqa shaxslarga va/yoki atrof-muhitga zarar yetkazilganligi uchun qoplash majburiyati yuzaga kelgan (sud qarori qonuniy kuchga kirgandan boshlab yoki Sug'urtalovchining roziligi bilan ushbu Ofertaning 9.4-bandiga muvofiq sug'urta to'lovi haqidagi kelishuv imzolangan) paytdan boshlab tuzilishi va Sug'urtalovchiga taqdim etilishi shart.

8.6. Sug'urta qildiruvchi XIch obyektdagi avariya oqibatlarini Sug'urtalovchining vakillari bilan birgalikda ko'rikdan o'tkazgandan keyin bartaraf etishga (almashtirish, ta'mirlash) kirishishi mumkin. Zarar ko'rinishini o'zgartirishga faqat xavfsizlik nuqtai nazaridan, zarar miqdorini kamaytirish, Sug'urtalovchining roziligi bilan yoki Sug'urtalovchini voqaye haqida xabardor qilingandan keyin yo'l qo'yiladi.

8.7. Sug'urtalovchining vakillari tavsilotlar, tavsiflar va zararning miqdorini aiqlash uchun avariya joyiga erkin kirib-chiqish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozim.

8.8. Sug'urtalovchining yozma ruxsatisiz Sug'urta qildiruvchi va uning nomidan hech kim sodir bo'lgan voqea bo'yicha majburiyatlarni qabul qilish, to'lovlarni amalga oshirish yoki javobgarlikni qabul qilish huquqiga ega emas.

8.9. Mazkur voqeaga taalluqli barcha tavsilotlar o'rganib chiqilganidan keyin Sug'urtalovchi tomonidan sodir bo'lgan voqeani sug'urta hodisasi deb tan olish yoki tan olmaslik haqida qaror qabul qilinadi.

8.10. Sug'urtalovchining sug'urta to'lovini rad etish yoki to'lash haqidagi qarori Sug'urta qildiruvchiga sug'urta to'lovi to'lovi haqidagi yozma murojaat etilgandan keyin o'n besh kundan kechiktirmay xabar qilinishi va rad etilgan taqdirda rad etilishining dalilli sabablari asoslangan bo'lishi shart.

9-BO'LIM. SUG'URTA TO'VONI (SUG'URTA PULI) MIQDORI VA TO'LASH TARTIBI

9.1. Sug'urta to'lovi (sug'urta puli) miqdori Sug'urtalovchi tomonidan avariyaning texnik tekshiruvi, sud qarori va sug'urta hodisasining sodir bo'lishi shart-sharoiti, shu jumladan boshqa shaxslarga yetkazilgan zarar miqdorini o'z ichiga olgan boshqa hujjatlar asosida aniqlanadi.

9.2. Sug'urta to'lovi (sug'urta puli) to'lovi sug'urta hodisasini tasdiqlovchi hujjatlar asosida tuzilgan tomonlar imzolagan Sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnoma asosida amalga oshiriladi.

9.3. Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchi va Naf oluvchi o'rtasida sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi yoki bo'lmaganligi, Naf oluvchi sug'urta to'lovini olishga haqli ekanligi, Sug'urta qildiruvchi sug'urta to'lovini qoplashi majburiyati va sug'urta to'lovining miqdori yuzasidan bahs bo'lmagan taqdirda e'lon qilingan talablar Sug'urtalovchining roziligi bilan suddan tashqari (sudgacha) bo'lgan tartibda qoniqtirilishi va sug'urta to'lovi to'lanishi mumkin.

9.4. Sug'urta hodisasi suddan tashqari tartibda hal etilganda Sug'urtalovchi tomonidan zararning va sug'urta to'lovining miqdori mutasaddi idoralarning zarar, uning tavsilotlari va oqibatlari to'g'risidagi, yetkazilgan zararning miqdorini, XIch

obyektidagi avariya va yetkazilgan zarar o'rtasidagi sabab va oqibati jihatidan bog'liqlikni tasdiqlovchi hujjatlari asosida aniqlanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan hujjatlar asosida Sug'urta hodisasi to'g'risida dalolatnoma tuzilib, Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchi va zarurat tug'lsa, Naf oluvchi tomonidan imzolaniadi va Sug'urta qildiruvchining zarar yetkazilganligi uchun fuqarolik javobgarligi yuzaga kelganligini tasdiqlovchi hujjat bo'lib hisoblanadi.

Sug'urtalovchi XIch obyektidagi avariya natijasida yetkazilgan zararining haqiqiy miqdorini aniqlash uchun mustaqil ekspertlar va/yoki boshqa shaxslarni (yoki tashkilotlarni) jalb qilishga haqli.

9.5. Sug'urta to'voni to'lovi boshqa shaxslarning XIch obyektida avariya bo'lgan paytdan boshlab uch yil o'tgunga qadar qo'yilgan talabiga (zararni qoplash to'g'risidagi talablarga) ko'ra amalga oshiriladi.

9.6. Sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lovi sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnoma imzolanganidan so'ng 10 (o'n) ish kuni mobaynida amalga oshiriladi.

9.7. Sug'urta to'voni to'lovi ushbu Ofertaning 1-ilovasida ko'rsatilgan, belgilangan sug'urta pullari chegarasida amalga oshiriladi.

Agar ushbu Oferta bo'yicha turlicha eng kam sug'urta pullari belgilangan bir nechta XIch obyektlari sug'urtalangan bo'lsa, aniq sug'urta hodisasi bo'yicha sug'urta to'voni to'lovi foydalanilayotganda avariya yuz bergan XIch obyekt bo'yicha belgilangan sug'urta puli chegarasida amalga oshiriladi. Eng kam sug'urta pulida oshgan zararining o'rnini boshqa XIch obyektlar uchun belgilangan sug'urta pullari evaziga qoplashga yo'l qo'yilmaydi.

9.8. Sug'urta to'voni to'lovi ushbu Oferta tuzilayotgan kunda miqdori belgilangan sug'urta pullari chegarasida va barcha holatlarda ulardan oshib ketishi mumkin emas, ushbu Ofertaning 7.2.4-bandida ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno.

9.9. Avariya oqibatlaridan kelib chiqib, sug'urta to'voni o'z ichiga quyidagilarni oladi:

a) jabrlanuvchining molg'mulkini yo'qotilishi yoki zararlanishidan yetkazilgan zararni tiklash.

b) jabrlangan shaxsning (Naf oluvchining) hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash. Maxsus qo'shimcha shart: Hayot va/yoki sog'liqqa yetkazilishi bilan bog'liq boshqa shaxsga (Naf oluvchiga) tegishli sug'urta to'voni miqdorini aniqlashda sodir bo'lgan voqea tavsifi va tavsilotlaridan kelib chiqib, tezkor va sifatli sug'urta himoyasini taqdim etish maqsadida Sug'urtalovchi o'z xohishiga ko'ra sug'urta to'vonini belgilashning turli uslub, shakllarini belgilashi va to'lashi mumkin.

b) atrof-muhitga yetkazilgan zararni qoplash (erning, uning qarisining, ostki va ustki suvlarining ifloslanishi);

r) ushbu Ofertaning 7.2.4-bandiga muvofiq xarajatlarning o'rnini qoplash.

9.10. Sug'urta to'voni (sug'urta puli) bevosita Naf oluvchiga – boshqa shaxsga (shaxslarga) to'lanadi. Ushbu Oferta 7.2.4-bandida ko'rsatilgan xarajatlarni Sug'urta qildiruvchiga qoplanadi.

9.11. Sug'urta to'voni to'lovi tomonlar sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnomani imzolangan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida barcha holat va tavsilotlar o'rganib chiqilgandan keyin amalga oshiriladi.

9.12. Sud qarori ustidan belgilangan tartibda arz (norozilik) qilingan taqdirda, agar birlamchi qarorga binoan ijobiy yoki salbiy xulosa qilishning imkoni bo'lmasa, Sug'urtalovchi sug'urta to'voni (sug'urta puli) to'lash masalasini yakuniy sud qarori chuqungacha qoldirishi mumkin.

9.13. Sug'urtalovchi yetkazilgan zararni aniqlash maqsadida qo'shimcha tekshiruv o'tkazishga haqli. Shu munosabat bilan u avariyaning texnik tekshiruv materiallarini, zarar yetkazilganligi yuzasidan mutasaddi idoralarning hujjatlarini, tibbiy xulosalarni, yo'qotilgan (shikastlangan, nobud bo'lgan) mol-mulk haqida xulosa qilishga imkon beruvchi hisob-kitob hujjatlarini, amalga oshirgan ishlar qiymatini, shuningdek boqqa zarur hujjatlarni talab qilishga haqli.

9.14. Agar sug'urta hodisasi sodir bo'lgan paytda Sug'urta qildiruvchining ushbu Oferta bilan sug'urtalangan javobgarligi boshqa sug'urtalovchilarda sug'urtalanganligi ma'lum bo'lsa, ushbu qaltislikka nisbatan Sug'urta qildiruvchi tomonidan tuzilgan barcha sug'urta shartnomalari bo'yicha umumiy puliga har bir sug'urtalovchi o'zi tuzgan oferta bo'yicha sug'urta pulini mutanosib miqdorda sug'urta to'voni to'laydi.

9.15. Yetkazilgan zarar boshqa shaxslar tomonidan ham qoplanadigan holatlarda Sug'urtalovchi ushbu Oferta bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta to'voni (sug'urta puli) bilan boshqa shaxslar tomonidan qoplangan pullar o'rtasidagi farqni to'laydi. Sug'urta qildiruvchi boshqa shaxslar tomonidan zararni qoplanishi to'g'risida o'ziga ma'lum bo'lganda 10 (o'n) bank kuni ichida sug'urtalovchini xabardor qilishi shart.

9.16. Agar Sug'urta qildiruvchi ushbu Oferta tuzilgan XIch obyektidan foydalanish natijasida yetkazilgan zararni sud qarori ijrosi asosida qoplasa, Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga sug'urta to'vonini (sug'urta pullarini) u amalga oshirgan zararni o'rnini qoplash xarajatlari miqdorida, lekin belgilangan sug'urta pulidan oshmagan miqdorda to'laydi.

9.17. Agar qandaydir holatlar (shart-sharoitlar) ushbu Ofertada o'z aksini topmagan bo'lsa, Sug'urtalovchi o'z ixtiyoriga ko'ra O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq kompromiss qaror qabul qilishi mumkin.

10-BO'LIM. SUBROGATSIYA

10.1. Sug'urta to'voni to'langanidan keyin Sug'urta qildiruvchi yoki ushbu Oferta foydasiga tuzilgan shaxs zarar yetkazilganligida aybdor shaxslardan talab qilish huquqi (to'langan pullar doirasida) Sug'urtalovchiga o'tadi.

Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga aybdor shaxsdan talab qilish huquqini amalga oshirish uchun barcha zarur hujjatlarni taqdim etishi va barcha harakatlarni amalga oshirishi shart.

11-BO'LIM. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

11.1. Tomonlar o'z zimmlariga olgan majburiyatlarni bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgardirlar.

11.2. Sug'urta to'voni to'lash majburiyatlarini bajarilishini kechiktirganlik uchun Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga har bir kechitirilgan kun uchun to'lanishi lozim bo'lgan pulning 0,10% miqdorida, lekin to'lanishi lozim bo'lgan mablag'ning

10 (o'n) % dan oshmagan miqdorda neustoyka to'laydi. Neustoyka to'lanishi Sug'urtalovchini sug'urta to'lovni to'lovidan ozod etmaydi.

11.3. Tomonlar o'z majburiyatlarini bajarmasliklari yengib bo'lmas kuch (fors-major) keltirib chiqargan bo'lsa, javobgarlikdan ozod bo'ladilar. Yengib bo'lmas kuch ta'sirida bo'lgan tomon boshqa tomonni uning yuzaga kelganligi va ko'rsatilgan holat qancha davom etishi mumkinligi haqida xadardor qilishi shart.

12-BO'LIM. BAHSLARNI HAL ETISH TARTIBI

12.1. Ushbu Oferta bo'yicha kelib chiqadigan bahslar Sug'urta qildiruvchi va Sug'urtalovchi, zarur holatda Naf oluvchi o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi. Bahsli masalalar bo'yicha kelishuvga erishishning imkoni bo'lmasa, ularni hal etilishi xo'jalik sudiga qonun hujjatlarida ko'rsatilgan tartibda taqdim etiladi.

13-BO'LIM. BOSHQA SHARTLAR

13.1. Ushbu Ofertaga barcha qo'shimchalar va o'zgartirishlar tomonlarning roziligi bilan yozma ko'rinishda bo'lishi shart.

13.2. Ushbu Oferta bir nusxadan har bir tomonda saqlanuvchi va bir xil yuridik kuchga ega ikki nusxada tuzildi.

14. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

Sug'urta qildiruvchi ushbu Oferta va sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) ni imzolash orqali sug'urta xizmatining mazmun-mohiyati, uning narxi (sug'urta mukofoti), sug'urta mukofotini qaytarish shartlari, xizmatning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, sug'urta agenti (vositachi ishtiroki mavjud bo'lganda) to'g'risidagi barcha zarur ma'lumotlar va sug'urta qoidalar bilan to'liq tanishib chiqqanini hamda ularga rozi ekanini tasdiqlaydi.